

**EDUCATIONAL CONTENT, METHOD, SOFTWARE AND TOOLS
FOR PREPARING FUTURE ENGINEERS FOR PROFESSIONAL
ACTIVITY BASED ON MEDIA EDUCATIONAL MEANS.**

**Jizzakh polytechnic institute
basic doctoral student.
Eshonkulov Almurod Akhmad oglu**

Abstract.

In educational institutions around the world, technologies for directing future specialists to creative media activities and creating an environment for the development of media culture have been widely applied to the educational process. Platforms for developing the professional competence of future specialists using media and information bases have been introduced. In the era of the development of digital technologies and the activation of educational platforms, special attention is paid to improving (implementing) mechanisms for developing media competence in future specialists for professional activities.

Keywords:

media education, media component, future engineer, pedagogy, communication, continuing education, virtual educational technologies, professional activity.

Annotatsiya: Jahon ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni ijodiy media faoliyatga yo'naltirish hamda mediamadaniyatini rivojlantirish muhitini yaratish texnologiyalari ta'lim jarayoniga keng tatbiq etilgan. Media va axborotlar bazasi vositasida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish platformalari joriy etilgan. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi hamda ta'lim platformalarining faollashuvi davrida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularda mediakompetentlikni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga (tatbiq etishga) alohida e'tibor berilmoqda.

Аннотация: В образовательных учреждениях по всему миру широкое распространение получили технологии ориентации будущих специалистов на творческую медиатедеятельность и создания среды для развития медиакультуры. Внедряются платформы развития профессиональной компетентности будущих специалистов с использованием медиа- и информационных баз. В эпоху развития цифровых технологий и активизации образовательных платформ особое внимание уделяется совершенствованию (внедрению) механизмов развития медиакомпетентности будущих специалистов для профессиональной деятельности.

Kalit so‘zlar: mediata’lim, mediakomponent, bo‘lajak muhandis, pedagogika, kommunikatsiya, uzluksiz ta’lim, virtual ta’lim texnologiyalari, kasbiy faoliyat.

Ключевые слова: медиаобразование, медиакомпонента, будущий инженер, педагогика, коммуникация, непрерывное образование, виртуальные образовательные технологии, профессиональная деятельность.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta’lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratishning me’yoriy asoslari ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi da ta’kidlanganidek, “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” ustuvor vazifa hisoblanadi. Natijada, bo‘lajak muhandislarni mediamadaniyatini rivojlantirish negizida ularni kelgusidagi kasbiy faoliyatga tayyorlash, ta’lim jarayoniga virtual ta’lim texnologiyalarini keng tatbiq etish, virtual laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishning metodik ta’minotini takomillashtirish uchun keng sharoitlar yaratiladi.

Bo'lajak muhandislarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirish muammosi bo'yicha quyidagi ilmiy natijalarga erishilgan: raqamli kompetensiyalar mediasavodxonlik va kasbiy-pedagogik mediakompetentlikni o'zaro integratsiyalash asosida rivojlantirilgan (Oslo Metropolitan University); kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak muhandislarda mediakompetentlik va raqamli kompetensiyalarning rivojlanganligini monitoring qilish mexanizmlari takomillashtirilgan (University of Limerick); pedagogik ta'limda sintezlashtirilgan raqamli kompetensiya modeli hamda o'qituvchi va talabalarning mediakompetentlik imkoniyatlarini rivojlantirishning integrativ texnologiyalari uyg'unlikda ishlab chiqilgan (University of Malta); bo'lajak muhandislarda mediakompetentlikni intellektual va psixoemotsional rivojlantirish tizimi modellashtirish asosida ishlab chiqilgan (University of Valencia); talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish mexanizmi mediatexnologiyalar tizimini joriy etish orqali ishlab chiqilgan (De la Rioja Internaeional University); ta'lim jarayonini boshqarishni avtomatlashtirish asosida mediakompetentlikni rivojlantirishning intellektual tizimlari ishlab chiqilgan (Rossiya); raqamli texnologiyalarni ta'limga tatbiq qilish tizimi ishlab chiqilgan (Avstraliya).

Tadqiqotda zamonaviy axborot muhitida media manbalarning nafaqat ijobiy, balki salbiy ta'sirini ham o'rganish, pedagoglarning faoliyatidagi ahamiyatini tahlil qilish, bo'lajak muhandislar ishining natijaviyligi, uning pedagogik faoliyatini doimo yangilanib turadigan axborot kontentida samarali tashkil qilishga alohida urg'u berilgan. Axborot chaqiriqlari va o'zgarishlariga tezkorlik bilan javob qaytaradigan, zamonaviy media vositalardan optimal foydalanish malakasiga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash uchun bo'lajak muhandislarning professionalizmining, uning global axborot fazosida yo'nalish ola bilish layoqatini rivojlantirish yo'nalishlari muhim bo'lib hisoblanadi. [1]

Bo'lajak muhandislarda mediakompetentlikni rivojlantirish muammosi mamlakatimizda oliy ta'lim tizimida yuz berayotgan asosiy o'zgarishlar bilan, kompetentli yondashuvni


majmuaviy ta'lim asosi sifatida butunlay tan olinishi bilan, shuningdek yildan yilga turli yo'nalish mutaxassislarida, shu jumladan bo'lajak muhandislarda mediakompetentlikni rivojlantirishga oid tadqiqotlarning soni va sifati ortib borayotganligi bilan tavsiflanishini aniqladik.

Tadqiqotimiz avvalida mediakompetentlikni rivojlantirish muammosining zamonaviy holatini o'rganish muhimligi ayon bo'ldi. Bu bosqichning asosiy yo'nalishlari: mediakompetentlik tushuncha apparatini tizimlashtirish va mediakompetentlikni rivojlantirish bo'yicha tegishli ilmiy tajribani tahlil qilish. Bizning tadqiqotimiz uchun «media», «media vositalar», «media faoliyat», «media muhit», «mediakompetentlik», «bo'lajak muhandislarda mediakompetentlikni rivojlantirish» tushunchalari hal qiluvchi hisoblanadi.[4]

“Media muhit” tushunchasi – bu media vositalar yordamida amal qiluvchi, axborot fazosining har bir konkret individuum va umuman jamiyat uchun mos variantini yaratuvchi, hamda zamonaviy axborot jamiyatining asosiy madaniyati hisoblanadigan madaniy muhit.

Shulardan kelib chiqib, biz media muhitning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini keltiramiz: qayd qilinganlik – media axborot har doim ma'lum raqamli tashuvchilarda qayd qilingan bo'ladi; geografik masofalarni media jihatdan yaqinlashtiradi. Kommunikatsiyalar soni va hajmini sezilarli darajada oshirish, shuningdek, mavjud ijtimoiy cheklanishlarni yumshatish imkonini beradi. Tezlik - kommunikatsiyalarning tezligini sezilarli darajada oshiradi. Agressivlik - keraksiz, ortiqcha, to'qib chiqarilgan ma'lumotlar, axborot fantomlari, “trollar”, reklamalarning ko'pligi bilan ma'naviy tahdid qiladi va h.k. Boshqariluvchanlik - ma'lumotlar hajmi ko'pligidan xaos (tartibsizliklar)ga qaramasdan, media ma'lum odamlar tomonidan oson va samarali boshqariladi, bu odamlar shu muhit yordamida qo'yilgan maqsadlarga erishadilar.


Interfaollik - media muhitga tizimni tashkil qilish tamoyili xos, bunda qo‘yilgan maqsadga shu tizimning elementlari bilan axborot almashinuvi amalga oshiriladi.[2]



1-rasm. Bo‘lajak muhandislarda mediakompetentlikni rivojlantirishning tarkibiy tuzilmasi.

Bo‘lajak muhandislarda mediakompetentlikni rivojlantirish modelini qurishga pedagogika, psixologiya yondashuvlari tadqiqot ishining ilmiy asosini tashkil etadi. Tadqiqotchilar tomonidan ko‘plab samarali nazariy-metodologik yondashuvlar ishlab chiqilgan. Asosiylaridan quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: tizimli, aksiologik, faoliyatli, axborot, kompetentli, texnologik, madaniyatshunoslik va boshqalar. Olimlar o‘z tadqiqotida yondashuvlarni dolzarblashtirishda duch keladigan birinchi va eng asosiy narsa – bu o‘z tanlovini asoslab berishdan iborat.

Shu bilan birga tadqiqot ishi doirasida bo‘lajak muhandislarda mediakompetentligini rivojlantirishning pedagogik tizim komponentlarining o‘zaro aloqadorligi va uning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlandi (2-rasm).



2-rasm. Bo‘lajak muhandislarda mediakompetentligini rivojlantirish komponentlari.

Bo‘lajak muhandislarda mediakompetentlikni rivojlantirish jarayoni asosiy funksiyalari sifatida axborot-tahlil, kasbiy-rivojlantiruvchi va yo‘nalishli-moslashuvchanlikni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Funksiyalarni o‘rganish bo‘lajak muhandislarda

mediakompetentlikni rivojlantirish jarayonida ishlab chiqiladigan hamda amalga oshiriladigan pedagogik va texnik-texnologik topshiriqlarni qurish imkonini beradi.

Axborot-tahliliy funksiya bo'lajak muhandislarda mediakompetentlikni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan axborotlar almashinuvini ta'minlaydi, mediakompetentlikni rivojlantirish jarayoni rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, mavjud qiyinchiliklarni belgilash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini topishga imkon yaratadi.

Mazkur ko'rinishdagi kompetensiyalarni o'zlashtirishda xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan kasbiy-rivojlantiruvchi funksiya, bo'lajak muhandislarning media muhitda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlarini ta'minlaydi, muhim kasbiy jihatlarni rivojlantirish uchun sharoit yaratadi, media vositalar yordamida muhandislarda kasbiy dunyoqarashni kengaytiradi va ularning kelajakda mustaqil bilim egallashlariga zamin hozirlaydi.

Yo'nalishli-moslashuvchanlik funksiyasi o'z tarkibiga media muhitda muvaffaqiyatli moslashuvchanlikni qamrab oladi, vaziyatlarni yaratish yo'li bilan kasbiy faoliyatga tatbiq qiladigan shaxsiy sifatlarni faollashtirish muhandislarning media axborotlar bilan kundalik ishlariga mansub kasb ta'limi o'qituvchi mediakompetentligi uchun ahamiyatli ma'lumotlarni izlashga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, innovatsion yondashuvlarning biz tomonimizdan aniqlangan pedagogik tizim komponentlari uchun tayanadigan bazaviy blok elementlari ahamiyatlidir, ya'ni bo'lajak muhandislarda mediakompetentlikni rivojlantirish:

oliy ta'lim muassasasida kasbga tayyorlashni zamonaviy tizimining ahamiyatli va ajralmas qismi ekanligi;

siklliligi, butunligi, turg'unligi, moslashuvchanligi, integrativligi va rivojlanish uchun resurslarga egaligi bilan tavsiflanuvchi pedagogik tizim komponentlari hisoblanadi;

pedagogik tizim komponentlari sifatida tizimli, faoliyatli va kompetentli yondashuvlar bazasida yaratilgan, ijtimoiy buyurtma, media faoliyat, mediakompetentlik talablariga

muvoq keladi; maqsadli, mazmunli-tashkiliy, jarayoniy-texnologik va nazorat-baholash bloklarini o‘z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamidov J.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish texnologiyasi // Monografiya. – T.: “Sano-standart” nashriyoti. 2017
2. Hamidov J.A. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari. Kasb-hunar ta’limi. – T., 2007
3. To‘raqulov O.X. Axborotlashtirilgan ta’lim muhitida kichik mutaxassislar tayyorlashning ilmiy-metodik ta’minotini takomillash-tirish. Ped. Fan. bo‘yicha doktorlik (DSs) ... diss. avtor. – T., 2017. – 64 b.
4. Kadirov X.Sh. Zamonaviy pedagogikada kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashning dolzarb masalalari// Pedagogika, ilmiy-nazariy va metodik jurnal TDPU, – T., 2019
5. Eshonqulov A.A., (2024). Mediata’limning bo‘lajak muhandislarni kasbga tayyorlashdagi maqsadi. “Экономика и социум” №1(116) 2024.
6. Eshonqulov A.A. Muhandislarni tayyorlashda mediata’lim platformalari: Masofaviy va aralash formatlarning imkoniyatlari. Taffakur ziyosi ilmiy uslubiy jurnal JDPU, 2024
7. Eshonqulov A.A. Bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash bo‘yicha ilmiy-metodik ta’minotning hozirgi axvoli va uni takomillashtirish yo‘llari.